

JINOYAT ISHLARI BO'YICHA SUD QARORLARINING MULKIY UNDIRUVIGA OID IJRO VARAQUALARNI IJRO QILISHDA XORIJIY TAJRIBA

Beshimov G'ulomjon Raxmatullaevich

O'zbekistan Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14910116>

Annotatsiya. Ushbu maqolada jinoiy ishlar bo'yicha sud qarorlarining mulkiy undiruvi bilan bog'liq masalalar atroflicha tahlil qilingan. Xususan, jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlarini mulkiy undiruvga oid qismlarini ijro etishda xalqaro tajribani o'rganish, mavjud samarali mexanizmlarni tahlil qilish va O'zbekiston qonunchiligiga tatbiq etish imkoniyatlarini ko'rib chiqishdan iborat.

Kalit so'zlar: Jinoyat ishlari, Federal Qonun, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, attorneylar, xalqaro hamkorlik, transchegaraviy, moliyaviy razvedka, raqamlashtirish, jamoatchilik nazorati, shaffoflik, raqamlashtirish, avtomatlashtirish, jinoyat-protsessual, kompensatsiya, mulk.

FOREIGN EXPERIENCE IN EXECUTION OF PROPERTY RECOVERY OF COURT DECISIONS IN CRIMINAL CASES

Abstract. In this article, issues related to property recovery of court decisions in criminal cases are analyzed in detail. In particular, it consists in studying the international experience in the execution of the parts of court decisions in criminal cases related to property recovery, analyzing the existing effective mechanisms and considering the possibilities of their application to the legislation of Uzbekistan.

Keywords: Criminal cases, Federal Law, Commonwealth of Independent States, attorneys, international cooperation, cross-border, financial intelligence, digitization, public control, transparency, digitization, automation, criminal procedure, compensation, property.

Kirish. Jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlarini mulkiy undiruvga oid qismlarini ijro etish jarayoni huquqiy tizimning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu jarayon davlatning huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan adolatni ta'minlash va jinoyat oqibatlarini bartaraf etishda samaradorligini belgilaydi.

Dunyoning turli mamlakatlarida sud qarorlarini ijro etishning huquqiy va tashkiliy mexanizmlari bir-biridan farq qiladi. Ayrim davlatlarda bu jarayon maxsus ijro organlari tomonidan amalga oshirilsa, boshqalarida sud yoki prokuratura tizimi tomonidan nazorat qilinadi.

Masalan, Yevropa mamlakatlarida ijro organlari mustaqil tuzilma sifatida faoliyat yuritadi va qarorlarni majburiy ijro etish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Xususan, AQShda esa sud qarorlarini ijro etish shtatlarning vakolatiga bog‘liq bo‘lib, davlat va xususiy ijro organlari hamkorlikda ishlaydi. Osiyo mamlakatlarida esa davlat nazorati kuchli bo‘lib, ijro jarayoni qat‘iy tartibga solingan.

Ushbu ishning maqsadi – jinoyat ishlari bo‘yicha sud qarorlarini mulkiy undiruvga oid qismlarini ijro etishda xalqaro tajribani o‘rganish, mavjud samarali mexanizmlarni tahlil qilish va O‘zbekiston qonunchiligiga tatbiq etish imkoniyatlarini ko‘rib chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va muhokama. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratining olib borilishi bir-biriga juda o‘xshash. Shu sababli biz, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratining qay darajada olib borilishini Rossiya Federatsiyasi misolida keltirib o‘tmoqchimiz.

Rossiya Federatsiyasining 2007-yil 2-oktabrdagi “Ijro ishi yuritish to‘g‘risidagi” gi 226-sonli Federal Qonuniga asosan, sud ijrochilarining o‘z vakolatlarini amalga oshirishlari jarayonida qonunlarga rioya etishlari ustidan Rossiya Federatsiyasi Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar nazorat olib boradilar. Bu qoidalar 1999-yil 10-fevralda qabul qilingan “Rossiya Federatsiyasining Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunida o‘z aksini topdi. Ta’kidlab o‘tish joizki, yuqorida nomi keltirilgan qonunlarga hozirgi paytga qadar bir necha marotaba o‘zgaritirish va qo‘shimchalar kiritilgan bo‘lsada, lekin ularning birortasida ham alohida “sud ijrochilarining qonunlarga rioya etishlari ustidan prokuror nazorati” sohasini aniqlashtiruvchi bob mavjud emas. Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 129-moddasida federatsiya prokurorlarining vakolatlari “Prokuratura to‘g‘risida”gi Federal Qonun bilan tartibga solinishi belgilangan. Bir qator rossiyalik olimlarning aytishlaricha, “Prokuratura to‘g‘risida”gi Federal qonunga ijro ishi yuritish ustidan prokuror nazoratiga bag‘ishlangan mustaqil bobni kiritilishi orqali qonunchilikda mavjud bo‘lgan bo‘shliqlar barataraf etiladi.

Rossiya federatsiyasining “Sud ijrochilari to‘g‘risida”gi Qonunining 5-moddasiga ko‘ra sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini majburiy ijro etish tizimini Sud ijrochilari federal xizmati va uning hududiy organlari tashkil etadi. Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 2004-yil 13-oktyabrdagi Farmoniga ko‘ra, “Sud ijrochilarining Federal xizmati to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlangan. Sud ijrochilari Federal xizmatining tashkiliy faoliyat asoslari mazkur nizom bilan tartibga solinadi.

Rossiyada bajaradigan vazifalariga qarab, sud ijrochilari ikki guruhga bo‘linadi:

– Sudlar faoliyatini amalga oshirishda belgilangan tartibni ta‘minlovchi ijrochilar. Ularning huquq va majburiyatilari “Sud ijrochilari to‘g‘risida”gi Federal Qonunda belgilab qo‘yilgan.

– “Sud ijrochilari to‘g‘risida”gi Qonundan tashqari “Ijro ishi yuritish to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra faoliyat yurituvchi sud ijrochilari.

Mazkur bo‘linish tegishli ravishda sud ijrochilari ustidan prokuror nazoratini amalga oshirish doirasini belgilab beradi. Sud ijrochilarining qonunlarga rioya etishlari ustidan prokuror nazorati o‘rnatilishidan asosiy maqsad – ularning faoliyatida qonuniylikni ta‘minlash, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish jarayonida har bir sud ijrochisining faoliyati tegishli hududiy prokuror nazorati ostida bo‘ladi. Rossiya federatsiyasining viloyat, tuman prokurorlari umumiy nazoratni amalga oshiruvchi organlar hisoblanadi. Shunday ekan ular, sud ijrochilari tomonidan sodir etilgan qonun buzilishlarini aniqlash va ularni baratrof etish bo‘yicha tegishli tartibda chora-tadbirlarni ishlab chiqadilar. Hududiy prokuratura xodimlari sud ijrochilarining tashkiliy bo‘linmalarida sodir etilgan qonunbuzilish holatlari yuzasidan tekshiruv o‘tkazib boradilar yoki bu xususida sud ijrochilarining hududiy boshqarmalariga topshiriq berishlari mumkin.

“Ijro ishi yuritish to‘g‘risida”gi Federal Qonunning 3-moddasiga asosan, sud ijrochilari bo‘linmalari majburiy ijro etish organlari sifatida belgilangan. Mazkur holat muhim ahamiyatga ega bo‘lib, vakolatli prokurorlar tomonidan yuqori e‘tiborni talab etadi.

Prokuratura organlariga sud ijrochilarining harakatlari yoki harakatsizligi ustidan shikoyat kelib tushsa, prokuratura xodimlari tegishli mansabdor shaxsni chaqirtirib holat yuzasidan tushuntirish berishni talab qilishga haqli. Agar sud ijrochisi uzrli sababalarsiz prokurorning chaqiruvi bo‘yicha prokuratura organiga yetib kelmasa, Rossiya Federatsiyasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 17-moddasi 7-qismiga binoan, unga nisbatan ma‘muriy javobgarlik yuzaga keladi. Vakolatli prokuratura xodimlari ijro ishi yuritish yuzasidan kelib tushgan shikoyatlarning mazmuniga qarab, sud ijrochilaridan ijro ishi yuritish materiallarini tekshirish uchun talab qilib olishga haqli. Sud ijrochilari tomonidan talab qilingan materiallarni o‘z vaqtida taqdim etmaslik yoki prokurorning tekshiruv o‘tkazishiga qarshilik ko‘rsatish ham o‘z navbatida ularga nisbatan ma‘muriy javobgarlik ishi qo‘zg‘atilishiga sabab bo‘ladi.

Ijro ishi yuritish sohasida ish hajmining ko'pligi va ijro materiallari turli bosqichlarda ijro etilishi tufayli sud ijrochilari tomonidan tez-tez qonun buzish holatlari kuzatiladi. Ijro ishi yuritish ishtirokchilari o'z manfaatlarini himoya qilish maqsadida, sud ijrochisining chiqargan noqonuniy hujjatlariga, harakatlariga yoxud harakatsizliklariga nisbatan sud ijrochilarining hududiy boshqarmalariga, prokuratura organlariga va sudga 10 kunlik muddat davomida shikoyat qilishlari mumkin. Bundan tashqari prokuratura organlari ham sud ijrochilari tomonidan chiqarilgan har qanday qonunga zid ravishda chiqarilgan hujjatga nisbatan protest keltirish vakolatga ega. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, ijro ishi yuritish ishtirokchilarining bildirgan shikoyatlariga nisbatan prokuror tomonidan keltirilgan protest qonun buzilishini bartaraf etishda samaraliroq natija beradi. Prokuror tomonidan keltirilgan protestning samarasi yuqorilini asosiy sharti uni o'z vaqtida qo'llanilishida ko'rinadi. Prokuratura organlari qonunda belgilangan asoslarga ko'ra sud ijrochilarining hududiy boshqarmalari hamda bo'limlarida tekshiruvlar o'tkazishlaridan oldin, sud ijrochilarining harakatlari ustidan kelib tushgan shikoyatlar bilan tanishib, ularni tahlil qilishlari lozim. Bu bilan prokuror o'zi o'tkazmoqchi bo'lgan tekshiruvining hajmini, mazmunini aniq belgilab olishi mumkin. Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishini tekshirish davomida prokuratura xodimlari quyidagilar bilan tanishib chiqishlari zarur.

- murojaatlarni ro'yxatga olish jurnali;
- ijro ishi yuritishni ro'yxatga olish jurnali;
- ijro ish yuritish jurnali;
- voyaga yetmagan farzandalr uchun zarur bo'lgan summalarni undirish jurnali;
- jarimalarni ro'yxatga olish jurnali;
- sud ijrochilarining tashkiliy bo'limlaridagi depozit summalarini ro'yxatga olish jurnali;
- sud ijrochilariga federal hukumat tomonidan berilgan rag'batlantirishlarni qay etish jurnali.

O'zbekistondan farqli ravishda Rossiyada sud ijrochilari maxsus kiyim kiyib, o'qotar quroldan foydalanishadi. Lekin shunday bo'lsada, sud ijrochilari qonun doirsidan chetga chiqib, ijro shi yuritishda qatnashuvchi shaxslarga jismoniy kuch ishlatishlari va qurol bilan tahdid qilishlariga yo'l qo'yilmaydi. Agar sud ijrochisi ijro ishi yuritish davomida maxsus quroldan o'zgalar manfaatlariga zid ravishda foydalansa, holat yuzasidan albatta vakolali prokuroning tekshiruv o'tkazishi zarur bo'ladi.¹

¹ uristinfo.net/prokurorskiy-nadzor/207-prokurorskiy-nadzor-pod-red-jue-vinokurova/5130-prokurorskiy-nadzor-zaispolneniem-zakonov-sudebnymi-prstavami/html

Qozog‘iston Respublikasida ijro ishi yuritish Qozog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi, Fuqarolik prosessual kodeksi, “Ijro ishi yuritish va sud ijrochilarining maqomi to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi. Qozog‘iston Respublikasida ham O‘zbekiston Respublikasidek ijro ishi yuritish sohasida sud ijrochilari va boshqa shaxslar tomonidan qonunlarga rioya etilishi ustidan samarali prokuror nazorati o‘rnatilgan.

Ijro ishi yuritish sohasiga oid Qozog‘iston Respublikasi Bosh prokurorining “Ijro ishi yuritishning qonuniyligi bo‘yicha prokuror nazoratini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2011-yil 18-yanvarda qabul qilingan 188-sonli burug‘i mavjud. Ushbu buyruqqa asosan, vakolatli prokurorlarning asosiy vazifasi jismoniy va yuridik shaxslarning konstitutsiya va qonunlarda belgilangan huquqlarini amalga oshirishda, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilishda qonunlarga rioya etilishini ta‘minlash hamda sohada kelib chiqishi mumkin bo‘lgan qonun buzilishlarini oldini olishdan iborat.

Qozog‘iston Respublikasi Bosh prokuraturasining Departamenti, viloyat prokurorlari, Astana va Almata shahar prokurorlari, tuman va tumanlarga tenlashtirilgan prokuraturalar hamda harbiy va boshqa ixtisoslashtirilgan prokuraturalarijro ishi yuritish sohasida doimiy va samarali nazoratni olib boradilar. Prokuratura organlari tegishli tartibda tekshiruvlar o‘tqazish yo‘li bilan ijro etilishi lozim bo‘lgan sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishga vakolatli bo‘lgan organlar va ularning hududiy bo‘limlari bilan bir qatorda xususiy sud ijrochilari tomonidan qonuniy tartibda ijro etilishi yuzasidan tizimli tahlil qilib borishadi.

Qozog‘iston Respublikasida ijro ishi yuritishni qonuniyligini ta‘minlashda prokuratura organlarining asosiy yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

–sog‘ligi yoki yoshiga ko‘ra himoyaga muhtoj bo‘lgan, o‘z huquqlarini mustaqil ravishda amalga oshira olmaydigan shaxslarning huquq va manfaatlarini amalga oshirish qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

–sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishga vakolatli bo‘lgan organlarning mansabdor shaxslari tomonidan amalga oshiriladigan ijro harakatlarini aniq va bir xilda qo‘llanilishi ustidan nazorat olib borish;

–ijro ishi yuritishga vakolatli bo‘lgan mansabdor shaxslarning harakatlari yoki harakatsizliklari ustidan kelib tushgan shikoyatlarni nazorat qilish;

Prokuror nazorati faoliyatini amalga oshirish davomida qonun buzilish holatlari aniqlansa, ushbu qonun buzilish holatini keltirib chiqargan sud ijrochilariga nisbatan qonunda belgilangan

tartibda javobgarlik ta'sir choralari qo'llaniladi. Masalan, ma'lum bir sud ijrochisi tomonidan ijro ishi yuritish jarayonida noqonuniy tartibda qaror qabul qilinganligi aniqlansa, prokuror ushbu qarorni bekor qilish haqida davlat yoki xususiy sud ijrochisining rahbariga protest keltiradi. Agarda ijro ishi yuritish noqonuniy asoslarga ko'ra to'xtatilgan bo'lsa, prokuratura organlari uni darhol ijroga tiklash va ijro etish bo'yicha cho'raralar ko'radi. Shu bilan birgalikda ijro ishi yuritish sohasida aniqlangan qonun buzilish holatlariga qarab, boshqa prokuror nazorati hujjatlari ham qo'llanilishi mumkin.

Qozog'iston Respublikasining viloyat prokurorlari, Astana va Almaty shahar prokurorlari prokuror nazoratining holatini, odil sudlovni amalga oshirilishining qonuniyligini, ijro hujjatlarini ijro etishda sud ijrochilari tomonidan qonunlarga rioya etilishi ahvolini tahlil qilib, keyingi hisobot davrining 7-kuniga qadar Bosh prokuraturaga axborot topshiradilar. Yil natijalari bo'yicha qonuniylik holati yuzasidan esa umumlashtirishlar tayyorlanadi va ushbu umumlashtirish ma'lumotlari keyingi yilning 7-yanvar kunigacha Qozog'iston Respublikasi Bosh prokuraturasiga taqdim etiladi.²

Ukrainada ham Qozog'iston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi singari sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishini ustidan prokuror nazoratining o'rnatilgani bu boradagi qonunchilikni rivojanganidan dalolat beradi.

Ukraina qonunchiligiga binoan sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirish davrida prokuratura organlari tomonidan aniqlangan har bir qonundan tashqar holat tegishli tartibda javobgarlikni keltirib chiqaradi. Prokuratura organlarining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lib, sud hujjatlarini ijro etishga vakolatli bo'lgan shaxslar faoliyatini tekshirish, qonun buzilish holatlarini, ularni keltirib chiqargan shart- sharoitlarni o'rganish va baratrafi etishga doir zaruriy chora-tadbirlarni ko'rish hisoblanadi.³

Belorussiyada sud qarorlarini qonunga muvofiqligi va ularni ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat olib borish prokuror nazoratining alohida bir yo'nalishi bo'lib, ushbu yo'nalish barcha sud qarorlarining qonuniyligi va asosligini tekshirishga yo'naltirilgan. Prokuratura organlarining nazorat predmeti xo'jalik, fuqarolik va jinoyat sudlari tomonidan

² <https://tengrinews/kz/zakon/generalnaya-prokuratura-respubliki-kazahstan/sud/id-V1000006737/>

³ <http://pravo-ukraine.org/ua/gos-organy-sluzhba/zakon-o-prokurature/12841-prokurorskiy-nadzor-za-soblyudeniem-zakonov-v-ukraine-ststya-1>

chiqarilgan sud qarorlari va xo‘jalik sudining apellatsiya instansiyasi qarorlarini qonunga muvofiqligini tekshirish hisoblanadi.

Prokuror nazoratining asosiy vazifalari quyidagilar:

– fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini, davlat va jamiyat manfaatlarini himoyasini ta‘minlash;

– iqtisodiy sohada qonunchilikni ta‘minlash va huquqbuzarliklarni oldini olish;

– sud qarorlari va ajrimlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishini ta‘minlash.

Alohida ta‘kidlab o‘tish joizki, O‘zbekistondan farqli ravishda Belorussiyaning “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunida sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etilishi ustidan nazorat prokuror nazoratining asosiy yo‘nalishlari qatoridan o‘rin olgan.⁴

Italiyada “Sud tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq prokuratura organlari qonunlarni amalga oshirilishi ustidan nazorat olib boradi va davlat manfaatlarini himoya qiladi. Shu bilan birgalikda sud qarorlarini to‘g‘ri va samarali ijrosi ustidan prokuror nazoratini tashkillashtiradi. Italiyaning prokuratura organlari sud hokimiyati tarkibiga kiradi. Ijro ishi yuritish to‘g‘risidagi masalalar Italiya fuqarolik prosessual kodeksi bilan tartibga solinadi. Ushbu kodeksning 474-moddasiga ko‘ra, majburiy ijro etish asoslari, ijro varaqasi ijroga topshirilgan paytdan boshlab yuzaga keladi. FPKning ikkinchi bo‘lim ikkinchi bobi majburiy musodara qilishga oid masalalarga bag‘ishlangan bo‘lib, majburiy musodara qilish jarayonida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat sudlar tomonidan amalga oshiriladi. Italiyada mavjud bo‘lgan “Ijro ishi yuritish to‘g‘risida”gi Qonun jamiyatda o‘rnatilgan huquqiy odat normalarini aks ettiradi. Sud ijrochilari ijroga taqdim etilgan ijro hujjatiga asosan band solinishi mumkin bo‘lgan mulk miqdorini belgilash va debitorning shaxsiga oid ma‘lumotlarni o‘rganish huquqiga ega. Sud ijrochilari ijro ishi yuritish jarayonida taraflarning manfaatlariga ziyon yetkazmasliklari hamda jamiyatda mavjud bo‘lgan qonun normalariga qat‘iy tartibda rioya etishlari lozim.⁵

Fransiyada prokuraturaga oid normalar 1958-yilda qabul qilingan Jinoyat prosessual kodeksida o‘z aksini topgan. Bu normalar sudda prokurorning mustaqil ishtirokini belgilab beradi. Fransiyaning prokuratura organlari ijro hokimiyatining vakillari hisoblanadi. Sud qarorlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishini ta‘minlash jarayonida prokurorlarning ahamiyati katta.

Sud qarorlarini ijro etish asoslari Fransiyaning JPK, FPK va 1991-yil 9-iyulda qabul qilinib, 1992-yildan kuchga kirgan “Ijro ishi yuritish to‘g‘risida”gi qonun bilan mustahkamlangan.

⁴ [bargu/by/1183-nadzor-za-sootvestviem-zakonu-sudebnyh-postanovleniy-a-takzhe-soblyudeniem-zakonodatelstva-pri-ih-ispolnenii/html](http://bargu.by/1183-nadzor-za-sootvestviem-zakonu-sudebnyh-postanovleniy-a-takzhe-soblyudeniem-zakonodatelstva-pri-ih-ispolnenii/html)

⁵ <http://www.pravo.vuzlib.su/book-z1299-page-82.html>

Sud ijrochilari majburiy ijro choralarini qo'llash orqali ijro hujjatlarida keltirilgan talablarlarni ijro etilishiga ko'maklashadilar. Ijro hujjatlari sud ijrochilari bilan bir qatorda Fransiya Bosh prokurori va unga bo'ysinuvchi prokurorlar, polisiya ofiserlari hamda komandirlar tomonidan ham ijro etilishi mumkin. Sud ijrochisi huquqiy maqomiga ko'ra, o'zida mustaqil harakat qiluvchi davlat xizmatchisi bo'lgan shaxs elementlarini mujassam etadi. Lekin har bir sud ijrochisi ijroi ishi yuritishni amalga oshirish davomida Respublika prokurorlarining bo'ysinuvida bo'ladi. Sud ijrochilari Fransiya Adliya vazirining buyrug'iga asosan o'z lavozimlariga tayinlanadilar. Sud ijrochilarini tayinlashda hududiy prokuratura organlari prokurorlarining xulosalari muhim ahamiyat kasb etadi. Prokuratura organlari sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etilishi ustidan nazorat olib borish bilan bir qatorda murakkab ijro ishi yuritish jarayonlarida sud ijrochilariga ko'maklashishlari mumkin.⁶

AQSHda sud qarorlarini ijro etilishi ustidan nazorat.

AQSHda davlat hokimiyati tizimida attorneylik xizmati instituti faoliyat yuritadi. Ularning o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradigan harakatlari bizdagi prokuratura organlari funksiyalari bilan o'xshash. Shuning uchun ham AQSHdagi attorneylarni prokurorlar deb atashimiz mumkin. Ularning Yevropa va MDH davlatlari xususan O'zbekistondagi prokurorlardan farqi attorneylar nazorat funksiyalariga ega emas. Attorneylarning belgilangan vakolatlari qatorida sud qarorlarini ijro etish masalasi ham mavjud. Attorneylar prokurorlar kabi nazorat funksiyasiga ega bo'lmasalarda sud qarorlarini ijro etilishi yuzasidan tekshiruvlar olib borib, sud ijrochilari tomonidan chiqarilgan noto'g'ri hujjatlarni bekor qilish va ularga nisbatan ta'sir choralarini qo'llash vakolatiga egadurlar.

AQSHda attorneylik xizmati bilan bir qatorda sheriflar ham faoliyat yuritadilar. Ular o'zlarining hududiy uchastkasida huquqiy tartibotni o'rnatibgina qolmay, o'zini o'zi boshqarish mahalliy organlarning farmoyishi va sud qarorlarini bajarilishini ta'minlaydi. Bu bir tomondan bizning uchastka nozirlaridan farqli ravishda:

–sud qarorlarini bajarilishini (o'z hududida) ta'minlaydi;

–ijroiya organining quyi vakili hisoblanadi;

–shu hududni tinchligi, jinoyatchilikdagi holat, xavfsizlikni boshqaradi va boshqa masalalar bo'yicha yuqori turuvchi organlarga xabar beradi.⁷

⁶ Мухамеджанов Э.Б. Прокуратура в зарубежных странах. Учебник. –Алматы: «Нур-пресс», 2005. – 9 с.

⁷ А.Т.Алламуратов, J.A.Rahmanov.Хорижий мамлакатларда прокуратура. О'quv-qo'llanma. Mas'ul muharrir: yu.f.n. O.M.Madaliyev. –T.: TDYUI nashriyoti, 2007. –34-35 bet.

Angliyada ijro ishi yuritish fuqarolik proessining oxirgi yakunlovchi bosqichi hisoblanadi. Anliyada sud qarorlarini ijro etilishi ustidan fuqarolik sudlari nazorat olib boradilar. Angliyada ham AQSHdagi singari prokurorlik lavozimi mavjud emas. Anliyadagi sud nazoratini ikki xil ko'inishi mavjud. Birinchisi nazorat tartibidagi sud kontroli, ikkinchisi ma'muriy kontrol. Nazorat tartibidagi kontrolni amalga oshirilishidan asosiy maqsad – majburiy ijro etish organlarining moddiy va proessual huquqlarini rioya etilishi va ularni to'g'ri qo'llanishini nazorat qilishdan iborat.

Angliyada majburiy ijro harakatlari undiruvchining rahbariy ahamiyatga ega bo'lgan yo'riqnomasi asosida amalga oshiriladi. Bu vaziyatda sherif yoki baylif undiruv choralarini ko'rishga yo'naltiriladi. Sheriflar Angliyada sud ijrochilari hisoblanadi. Angliyadagi sud amaliyoti jarayonida shu narsa o'rganilganki, sherif o'zining o'rinbosari va xatto qo'l ostidagi har bir xodimi tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik harakatlari uchun javobgar bo'ladi hamda ularning harakatlari yuzasidan sudda javob beradi. Aynan shu sababli sheriflar sud qarorlarini ijro etilishida, xodimlari tomonidan huquqbuzarlik harakatlari sodir etilishini oldini olish maqsadida ichki nazoratni ta'minlaydi.⁸

Xulosa. Jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlarini ijro etish, ayniqsa mulkiy undiruv masalalarida, turli mamlakatlarda samarali tizimlar joriy etilgan bo'lib, davlatlar ushbu masalani tartibga solish uchun o'ziga xos mexanizmlardan foydalanadilar va ularning tajribasi quyidagi xorijiy tajribadan kelib chiqib asosiy xulosalarda umumlashtirilishi mumkin:

1. Mustaqil va samarali ijro tizimini yaratish – davlat tizimidan alohida faoliyat yurituvchi ijro organlari samaradorlikni oshiradi.
2. Ijro jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish – bu vaqt va resurslarni tejashga yordam beradi.
3. Xalqaro hamkorlik va transchegaraviy moliyaviy razvedka tizimlarini rivojlantirish – jinoyatchilar tomonidan aktivlarni yashirishning oldini oladi.
4. Musodara qilingan mol-mulkni davlat manfaatlariga yo'naltirish – jamiyat uchun foydali dasturlarni moliyalashtirish imkonini beradi.
5. Ijro tizimining moliyaviy mustaqilligini ta'minlash – korrupsiya va byurokatiyaning oldini oladi.
6. Jamoatchilik nazorati va shaffoflikni oshirish – fuqarolar va fuqarolik jamiyati ishtirokida ijro tizimining ochiqligini ta'minlaydi.

⁸ Мухамеджанов Э.Б. Прокуратура в зарубежных странах. Учебник. –Алматы: «Нур-пресс», 2005. – 14-15с.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston uchun ushbu tajribalarni, xususan, sud qarorlarini ijro etish jarayonini samarali tashkil etish uchun raqamlashtirish, xalqaro hamkorlik, moliyaviy razvedka va mustaqil nazorat tizimlari mahalliy qonunchilikka moslashtirib tatbiq etish ijro tizimining samaradorligini oshirishga va mulkiy undiruv jarayonlarini takomillashtirishga va ijro tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent. 2023-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida»gi qonuni. 258-II-son. 29.08.2001-yil.
3. O‘zbekiston Respublika Prezidentining Sh.M.Mirziyoyevning “Sud-huquq sohasini yanada takomillashtirish hamda odil sudlov samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 6034-son farmoni. 2020-yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (2019-yil 1-aprelgacha bo‘lgan o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan. lex. uz).//www.lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi: Rasmiy nashr. - T., 2019.-672 b.
6. Niyozova S.S., Xaydarov Sh.D. Jinoyat-ijroiya huquqi moduli tushunchasi, predmeti va prinsiplari. O‘quv qo‘llanma. / Mas‘ul muharrir: B.B. Xidoyatov - T.: TDYU nashriyoti, 2020. - 80-b.